



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 5**

**2026**

## ZAMONAVIY AXLOQIY NAZARYALAR IJTIMOYIY-FALSAFIY TAHLIL

**Abdullayev Ibadulla Abdullayevich**

Ma'mun universiteti, dotsent (PhD)

### Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy axloqiy nazaryalar haqida ilmiy mushohadalari ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida bayon qilinadi. Axloqiy nazaryalarning o'zaro qiyosiy tahlili, uyg'un jihatlari va zidlik xususiyatlar urg'u qaratiladi. Shuningdek, zamonaviy axloqiy nazaryalarning axloqiy me'yorlar shakllanishi va rivojlanishiga futuristik tasavvurlari falsafiy tadqiq qilinadi.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy axloq, axloqiy nazarya, axloqiy me'yor, axloqiy tafakkur, axloqiy universalizm, utilitarizm.

## СОВРЕМЕННЫЕ ЭТИЧЕСКИЕ ТЕОРИИ: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

**Абдуллаев Ибадулла Абдуллаевич**

Университет Маъмун, доцент (PhD)

### Аннотация

В данной статье представлены размышления автора по современным этическим теориям с социально-философской точки зрения. Основное внимание уделяется сравнительному анализу моральных теорий, выделяя их гармоничные аспекты и противоречивые черты. Кроме того, философски рассматриваются футуристические концепции современных этических теорий относительно формирования и развития моральных норм.

**Ключевые слова:** современная этика, моральная теория, моральная норма, моральное мышление, этический универсализм, утилитаризм.

## MODERN ETHICAL THEORIES: A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS

**Abdullayev Ibadulla Abdullayevich**

Ma'mun University, Associate Professor (PhD)

### Abstract

This article presents the author's reflections on contemporary ethical theories from a socio-philosophical perspective. The focus is placed on a comparative analysis of moral theories, highlighting their harmonious aspects and contradictory features. Additionally, the futuristic concepts of modern ethical theories regarding the formation and development of moral norms are philosophically examined.

**Keywords:** modern ethics, moral theory, moral norm, moral thinking, ethical universalism, utilitarianism.

XX–XXI asr fan va texnikaning jadal rivojlanishi, ekologik va demografik muammolar, ishlab chiqarishdagi sifat o'zgarishlari, yadro quroli tahdidi kabi global muammolar asriga aylandi. Boshqa tomondan, ayni vaqtda ratsionalizm g'oyalari inqirozi, ongni bir tomonlama ratsionalizatsiya va texnologiyalashtirish haqida gapirish mumkin. Madaniyatning umumiy inqirozi, dunyoni va odamlarning ruhini uyg'unlashtirish hamda yaxshilash istagi axloqiy izlanishlarda o'z aksini topishi tabiiydir. Ma'naviy taraqqiyot jamiyat rivojining asosiy omilidir [1]. Ushbu maqolada ba'zi zamonaviy axloqiy nazariyalar ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq qilinadi. Bu muhim ahamiyatga ega, chunki taraqqiyot asosan jamiyatda hukmronlik qilayotgan qarashlar va mafkuralar bilan belgilanadi. Axloq ularning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarkibiy qismlardan biridir. Kelajakda o'z axloqiy tanlovini amalga oshirish uchun har bir inson zamonaviy davrda ilgari surilgan asosiy axloqiy tamoyillarni bilishi kerak. Ushbu ishning maqsadi ayrim zamonaviy axloqiy va falsafiy qarashlarni o'rganishdir.

Asosiy qism. Axloqiy universalizm — bu madaniy, irqiy yoki diniy farqlardan qat'i nazar, barcha odamlarga nisbatan qo'llaniladigan universal axloqiy tizim mavjudligini ta'kidlaydigan metaetik pozitsiyadir. Axloqiy universalizm — qadriyatlar va majburiyatlarga qarashlarning xilma-xilligi sharoitida barcha insonlar uchun umumiy, milliy-etnik madaniyat, muayyan davr va hududdan mustaqil bo'lgan axloqiy me'yorlar mavjud degan nazariy qarashdir. Axloqiy universalizmmning falsafiy asoslari sifatida quyidagilarni keltirish o'rinli: borliq nuqtayi nazaridan axloq qadriyat bo'lib, real va obyektiv mavjud

hamda inson ongidan mustaqildir. Bilishga oid asos — inson aql, axloqiy sezgi yoki mantiqiy tafakkur orqali universal axloqiy haqiqatlarni bilishga qodir. Me'yoriy asosi — umumiy axloqiy tamoyillar istisnosiz, majburiy hamda barcha uchun bir xil amal qiladi.

Shuningdek, axloqiy universalizmning bir qator tamoyillarini alohida ajratib qayd qilish maqsadga muvofiq. Bular: umumiylik, tenglik va majburiylikdir. Axloqiy universalizmning aqliy, tabiiy va pozitiv namoyon bo'lish shakllarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Mazkur zamonaviy axloqiy nazariyaning afzallik jihatlariga quyidagilarni qayd qilish o'rinli bo'lib, bular — inson huquqlarini e'tirof etishi, xalqlar o'rtasidagi axloqiy muloqotga imkon berishi, adolat va tenglikni mustahkamlashidir. Shuningdek, bir qator tanqidiy jihatlarini ham keltirib o'tish mumkin. Masalan, madaniyatlar turfa xilligini hisobga olmaslik amaliy qo'llashda to'siqlarga olib keladi.

Ushbu nazariyaning manbai inson fe'li, tabiati, uning hissiyot va tuyg'ularda boshqa odamni chuqur tushunish qobiliyati, aql va idrok hamda ishontirish uchun dalillash hisoblanadi. Boshqa tomondan, o'zining hayotiyligini isbotlagan barcha ma'lum axloqiy me'yorlarning umumiy o'zagi mavjud bo'lib, bular — hayot, sog'liq, mulk va shaxsiy qadr-qimmatni hurmat qilish, nafaqat o'ziniki, balki boshqalarnikini ham qadrlashdir. An'anaviy shaklda bu tezisni quyidagicha ifodalash mumkin: "Odamlarga shunday munosabatda bo'lki, ular senga qanday munosabatda bo'lishlarini istasang, sen ham ularga shunday munosabatda bo'l".

Bunday yondashuvda e'tibor birlashtiruvchi tamoyillarga qaratilar ekan, muayyan asoslarga bog'liq turli axloqiy tizimlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar, jumladan, diniy va dunyoviy axloq o'rtasidagi ziddiyatlar ikkinchi o'ringa suriladi. Bunda bir vaqtning o'zida ateistik yoki agnostik qarashlar tarafdorlari, monoteizm va politeizm vakillari axloqiy universalizm doirasida birlashishi mumkin. Axloqiy universalizmning turli tizimlari axloqning tabiati haqidagi metaetik masalada, ya'ni axloqning kelib chiqish asosigacha bo'lgan qarashlarda, shuningdek, aniq me'yoriy mazmunda bir-biridan farq qilishi mumkin, ammo ularning barchasi universallikda birlashadi.

Juda ko'p madaniy an'analar va ayrim mutafakkirlar — antik platonchilar va stoiklardan tortib, xristianlar va musulmonlar orqali zamonaviy kantchilar, obyektivistlar, tabiiy huquq, inson huquqlari va utilitarizm tarafdorlarigacha — axloqiy universalizm qarashlarini u yoki bu darajada ifodalaydilar. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi axloqiy universalizm falsafasining ifodasi sifatida qaralishi mumkin.

Axloqiy utilitarizm zamonaviy axloqiy nazariya bo'lib, unga ko'ra xulq-atvorning axloqiy qiymati uning foydaliligi bilan belgilanadi. Mazkur axloqiy nazariya konsekvensializmga oid nazariyalar guruhiga kiradi, ya'ni falsafiy va ijtimoiy ma'noda harakatlar yoki hodisalarning ahamiyati, foydaliligi yoki zararliligi ularning oqibatlarini nuqtayi nazaridan baholanadi, chunki utilitarizm xatti-harakatni o'z-o'zidan emas, balki uning natijalariga qarab baholaydi.

"Utilitarizm" atamasi nisbatan yangi bo'lib, uni umumiy muomalaga John Stuart Mill o'zining 1861-yilda yozilgan "Utilitarianism" nomli asari orqali kiritgan. Harakatning axloqiy qiymati uning umumiy baxtni oshirish darajasi bilan belgilanadi [2].

John Stuart Mill 1806-yil 20-mayda Angliyaning London shahrida, aniqrog'i Pentonville hududida tug'ilgan bo'lib, ingliz faylasufi, siyosiy iqtisodchi va mantiqshunos sifatida utilitarizm, erkinlik nazariyasi va axloq falsafasi rivojiga katta hissa qo'shgan. Uning fikriy ajdodlari asosan ingliz falsafiy adabiyotida uchraydi. Ayrim tarixchilar qadimgi davrda ham utilitarizm bo'lgan deb hisoblashadi, biroq bu ikki tushuncha — utilitarizm va evdemonizm (ya'ni foyda va rohat tushunchalariga asoslangan nazariyalar) — aralashdir yuborilganligi bilan izohlanadi. Bu chalkashlikning sababchisi ham aynan John Stuart Mill bo'lib, u o'zining asosiy qarashlariga zid ravishda etikadagi asosiy tamoyil sifatida "foйда" tushunchasiga "rohatlanish" belgisini kiritishni istagan. Epikurning axloqiy qarashlarini Bentam qarashlari bilan aralashdirib, Mill o'z tizimini epikurchilik bilan bog'lashga harakat qiladi. Biroq bu mutlaqo asossizdir.

Qadimgi davrda Mill murojaat qilishi mumkin bo'lgan yagona faylasuf — Suqrot bo'lib, u Platonning "Protogor" dialogida yaxshilikni foyda bilan aynanlashtiradi. Ammo Suqrotni ham utilitarist deb bo'lmaydi, chunki unda utilitarizm faqat yaxshilik tushunchasini belgilovchi omillardan biri xolos; bundan tashqari, "Protogor"dagi ta'rif ehtimol sofistlar bilan bahs jarayonidagi dialektik usul bo'lishi mumkin. Qadimgi davrda evdemonistlar bo'lgan, ammo utilitaristlar bo'lmagan; bu ikki tamoyil o'rtasidagi farq shu qadar kattaki, Mill tanqidchilaridan biri — J. Grote ("An Examination of the Utilitarian Philosophy", London, 1870) Millning utilitarizmi aslida utilitarizm emas, degan fikrni bildirgan.

Darhaqiqat, evdemonizm tamoyili — rohatlanish — subyektiv va egoistikdir va bu tamoyilning

tarixiy rivoji shuni ko'rsatadiki, u muqarrar ravishda pessimizmga olib keladi (masalan, Gegesiy ta'limotida). Utilitarizm tamoyili esa, aksincha, obyektiv va altruistikdir. Eng ko'p sonli odamlar uchun mumkin bo'lgan eng katta baxt — utilitar axloqning idealidir; bunda baxtni, Mill xato qilganidek, albatta rohat yoki azobning yo'qligi deb tushunish shart emas.

Utilitarizm tarixida ikki davrni ajratish mumkin:

1. Tayyorlov davri — unda utilitar formulaga asta-sekin yaqinlashilgan;
2. Formulani topish, uni ishlab chiqish va imkon qadar asoslash davri.

Utilitarizm nazariyasiga ingliz xalqining hayot ideali juda mos keladi, shu bois utilitarizm urug'larini allaqachon Bekon asarlarida uchratish ajablanarli emas. Bu urug', birinchidan, ilm-fan va bilimga utilitar munosabatda ("scientia est potentia" — "bilim kuchdir"), ya'ni tabiatni insonga bo'ysundirish g'oyasida; ikkinchidan esa, Bekonning yaxshilik haqidagi qarashlarida namoyon bo'ladi. U yaxshilikni individual ("bonum suitatis") va ijtimoiy ("bonum communionis") turlarga ajratib, ikkinchisiga ochiq ustunlik beradi. Ammo Bekon ijtimoiy yaxshilik deganda nimani nazarda tutganini aniq belgilab bermaydi.

Gobbs nazariyasi utilitarizmdan shu qadar o'ziga xos va farqliki, uni utilitarizm tarixiga kiritish noo'rin. Gobbs tamoyillari ko'p jihatdan Spinoza ta'limotiga yaqin bo'lib, uni ham utilitaristlar safiga qo'shish uchun asos yo'q. Lokkda esa utilitar motivlar aniq seziladi. Lokk yaxshilikni zavq keltiradigan yoki azobni kamaytiradigan narsa deb, yomonlikni esa aksincha talqin qiladi. Baxt — eng oliy zavqdir. Baxtga erishishning zarur sharti — fazilatdir. Fazilat mezonini uning foydaliligidir. Inson faoliyatini belgilovchi fazilat uch xil qonunchilikka bog'liq: ilohiy, fuqaroviy va ijtimoiy. Inson ularning barchasiga foyda motivi bilan bo'ysunadi.

Utilitar-evdemonistik unsurlar fransuz ensiklopedistlarida ham uchraydi. Gelvetsiyda zavqqa intilgan egoistik moyillik umumiy manfaat bilan uzviy bog'langan. Bu umumiy foyda g'oyasi Golbaxning "Tabiat tizimi" asarida ham kuchli ifodalangan. Devid Yum axloq mezonini umumiy foydada ko'radi. Yum tahlilida egoizmni axloqiy tamoyil sifatida keskin tanqid qilishi va "hamdardlik" ("simpatya")ning inson faoliyatidagi rolini ta'kidlashi alohida ahamiyatga ega.

Keyingi bosqich — Gartli nazariyasidir. U shaxsiy foydaning uch turini ajratadi:

1. Qo'pol foyda — zavq izlash va azobdan qochish;
2. Nozik foyda — hamdardlik, ilohiylik va axloqlikdan olinadigan zavq;
3. Oqilona foyda — eng katta mumkin bo'lgan baxtga intilish.

Bu yerda utilitar formuladan birinchi qism — "eng ko'p odamlar uchun eng katta baxt" — namoyon bo'ladi. Bu formulani Bentham ilgari surgan, ammo uning o'zi bu g'oyani Pristlidan olganini tan oladi.

Utilitarizmi falsafiy jihatdan asoslashga birinchi urinish Millga tegishlidir. Mill quyidagi masalalarni ko'rib chiqadi: foyda tamoyilining mohiyati, uning sanksiyasi, isbotlanish imkoniyati va foyda bilan adolat o'rtasidagi munosabat. Mill Benthamning baxt tamoyiliga ergashadi: foyda — zavq yoki azobning yo'qligidir. Harakatning foydaliligi uning umumiy manfaatga xizmat qilish darajasi bilan belgilanadi.

Mill zavqlarning sifat jihatdan farqlanishini tan oladi. Aql-idrok zavqlari jismoniy zavqlardan ustundir; "qoniqmagan inson bo'lish — qoniqqan cho'chqa bo'lishdan afzal". Mill axloqiy his va vijdonni tug'ma emas, orttirilgan deb hisoblaydi. U vijdonning asosi ijtimoiy hislar — odamlarning birlashishga intilishi ekanini ta'kidlaydi. Ana shu ijtimoiy hislar utilitar axloqning eng oliy sanksiyasidir.

Mill nazariyasining o'ziga xos jihati shundaki, u utilitar-evdemonizmni himoya qilar ekan, unga zid bo'lgan tamoyillarga yaqinlashadi: fazilatni "o'zi uchun", manfaatdan qat'i nazar qadrlash lozimligini tan oladi. Bu esa utilitarizmi mutlaq axloqiy asosga intiluvchi nazariyaga aylantiradi va uni ichki ziddiyatga olib keladi.

Utilitarizmga qarshi asosiy e'tirozlar shundan iboratki, u axloqni egoizm va baxt tamoyiliga asoslashga urinadi. Kant o'zining Critique of Practical Reason asarida baxtga asoslangan axloqiy nazariyani rad etgan va axloqning asosini kategorik imperativda ko'rgan. Utilitarizm vijdon tabiatini noto'g'ri tushuntiradi: uning kelib chiqishini tasvirlash bilan cheklanib, mohiyatini asoslay olmaydi.

Shunday qilib, utilitarizm evdemonizmga altruistik unsurlarni qo'shib, uni jozibaliroq, ammo ayni paytda beqarorroq qilgan. Axloqning mohiyati utilitarizm bera oladigan izohdan ancha chuqurroq tushuntirishni talab qiladi.

Klassik utilitarizm — bu axloqiy-falsafiy ta'limot bo'lib, harakatlarning axloqiy qiymatini ularning foydaliligi bilan, ya'ni eng ko'p odamlar uchun eng katta baxtni ta'minlash darajasi bilan

baholaydi. Quyida klassik utilitarizmning asosiy jihatlari tizimli tarzda bayon etiladi.

Klassik utilitarizmning mohiyatiga ko'ra, harakat axloqan to'g'ri bo'lishi uchun u ijobiy oqibatlarni maksimal darajada oshirishi kerak. Shuningdek, baxt ("happiness") yoki rohat ("pleasure")ning ko'payishi va azob ("pain")ning kamayishi hamda har bir insonning baxti teng ahamiyatga ega ekanligiga asoslanadi.

Jeremy Bentham (1748–1832) klassik utilitarizm asoschisi bo'lib, baxtni rohat va azob orqali tushuntiradi. "Eng ko'p odamlar uchun eng katta baxt" axloqning asosiy mezonidir [3]. Shuningdek, u gedonistik hisob ("hedonic calculus")ni ishlab chiqqan bo'lib, rohatni miqdoriy baholash mumkin deb hisoblagan. Unga ko'ra, rohat mezonlari quyidagilar:

- intensivligi;
- davomiyligi;
- ehtimolligi;
- yaqinligi;
- unumdorligi;
- tozaligi;
- qamrovi.

John Stuart Mill Bentham g'oyalarini rivojlantirgan. U rohatlarni sifat jihatdan farqlaydi: yuqori (intellektual, axloqiy) va past (jismoniy). Uning mashhur fikriga ko'ra: "Qoniqmagan Suqrot bo'lish qoniqqan nodondan afzal".

Klassik utilitarizmning asosiy tamoyillari:

1. Konsekvensializm — harakatning axloqiyligi uning oqibatlariga bog'liq.
2. Gedonizm — baxt rohatning ko'payishi va azobning kamayishidir.
3. Universallik — har kimning manfaatlari teng hisobga olinadi.
4. Maksimizatsiya — eng katta umumiy foyda maqsad qilib olinadi.

Klassik utilitarizmning afzalliklari:

- aniq va amaliy mezon beradi;
- ijtimoiy siyosat va huquqda qo'llash mumkin;
- adolatni umumiy manfaat bilan bog'laydi.

Shu bilan birga, uning tanqidiy jihatlari ham mavjud:

- shaxsiy huquqlar qurbon qilinishi mumkin;
- baxtni aniq o'lchash qiyin;
- ozchilik manfaatlari e'tibordan chetda qolishi ehtimoli mavjud.

Xulosa. Mazkur ilmiy faoliyat doirasida tahlil qilingan zamonaviy axloqiy nazariyalar ijtimoiy hayotning muhim nazariy asoslaridan biri bo'lib, ularni amaliy qo'llashda turli to'siqlarga duch kelinishi dolzarb masala hisoblanadi. Boshqa tomondan, axloq kontekstida turli yondashuvlarning mavjudligi dialektik jihatdan muhimdir, chunki axloqiy haqiqat biryoqlama va statik tizim emas, balki qarama-qarshiliklar, o'zaro inkor va sintez jarayonida rivojlanadigan murakkab ijtimoiy ong shaklidir.

Xulosa qilib aytganda, axloqda turli yondashuvlarning mavjudligi tasodifiy emas — bu dialektik rivojlanishning zaruriy sharti bo'lib, u axloqiy tafakkurning chuqurlashuvi, moslashuvchanligi va universallikka intilishini ta'minlaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2021. — 464 b.
2. Mill J.S. Utilitarianism. — London: Parker, Son, and Bourn, 1861. — 64 p.
3. Bentham J. An Introduction to the Principles of Morals and Legislation. — Oxford: Clarendon Press, 1789. — 350 p.
4. Kant I. Critique of Practical Reason. — Cambridge: Cambridge University Press, 1997. — 178 p.
5. Falsafa: oliy o'quv yurtlari uchun darslik / mas'ul muharrir A. Sher. — Toshkent: O'zbekiston, 2020. — 320 b.
6. Etika (axloqshunoslik): o'quv qo'llanma. — Toshkent: Fan, 2018. — 240 b.
7. Ma'naviyat asoslari. — Toshkent: Ma'naviyat, 2017. — 256 b.
8. Zamonaviy falsafa muammolari: ilmiy maqolalar to'plami. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. — 300 b.